

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

4-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 4 (6) – 2026

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdulkaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Sulaymanova Dildora Nazarovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Махмудова Нигора Баротовна</i> ИСТОРИЧЕСКИЙ ОБЗОР ПЕНИТЕНЦИРНОГО ДЕЛА В КОЛОНИАЛЬНОМ ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ, ПО ОТЧЁТАМ РЕВИЗИИ СЕНАТОРА К.К.ПАЛЕНА	10-15
<i>Esonov Ziyodbek Yuldashevich</i> RISHTON KULOLCHILIK MAKTABI VA UNING LOKAL XUSUSIYATLARI ETNOGRAFIK TAHLILI	16-20
<i>Абдиев Рузикул Буронович</i> ИСТОРИКО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ СОХРАНЕНИЯ АРХИТЕКТУРНОГО НАСЛЕДИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	21-27
<i>Абдужаббаров Шерзод</i> ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ, ФУНКЦИИ И ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ СУЩЕСТВОВАНИЯ И РАБОТЫ СОВЕТА ТУРКЕСТАНСКОГО ГЕНЕРАЛ-ГУБЕРНАТОРА	28-33
<i>Boymurodov Shuxrat Toshkentovich</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'RTA MAXSUS TA'LIM, SOHASIDA MA'NAVIIY YANGILANISH	34-38
<i>Жураева Нафиса Олимовна</i> ТОПОГРАФИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ КУЛЬТОВЫХ СООРУЖЕНИЯХ НА ФОРМИРОВАНИЕ ГУЗАРОВ ГОРОДА БУХАРЫ	39-45
<i>Safarov Akmal</i> SUV XO'JALIGI SOHASI UCHUN MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	46-52
<i>Tursunova Mahliyo Sarvar qizi</i> XORIJIIY INVESTITSIYALAR ISHTIROKIDAGI KORXONALAR FAOLIYATINING HUDUDIIY IJTIMOIIY-IQTISODIIY HAYOTGA TA'SIRI (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA, 1991- 2026 -YILLAR).....	53-57
<i>Mardiyeva Guzal Karimovna</i> SAMARQAND VILOYATIDA SOVET DAVRINING DASTLABKI YILLARIDA XOTIN-QIZLARINING OLIY TA'LIMGA KIRISH IMKONIYATLARI VA CHEKLOVLAR	58-62
<i>Kenjayev Elyor Sattorovich</i> YANGI O'ZBEKISTONNI BARPO ETISHDA STRATEGIK ISLOHOTLAR: TARAQQIYOT VA MA'NAVIIY YUKSALISH UYG'UNLIGI	63-70
<i>Polvonov Kozimbek Naimovich, Polvonov Anvar Naimovich</i> QASHQADARYODAGI YETAKCHI O'QUV DARGOHLARIDAN BIRI	71-79
<i>Mo'minova Gavxar Esanovna</i> O'ZBEKISTON SAVDO TARIXINI O'RGANISHDA DAVLAT ARXIVLARI HUJJATLARINING O'RNI	80-85
<i>Norboyev Sarvar Qahramon o'g'li</i> O'ZBEKISTON TARIXIIY SHAHARLARINING XALQARO MIQYOSDA TAN OLINISHI	86-90

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Tillabaeva Umida Makhsumovna, Talipova Nigora Tulkunovna</i> DIGITALIZATION AND EMPLOYABILITY: A BIBLIOMETRIC ANALYSIS OF RESEARCH TRENDS (2018–2025)	91-100
<i>Xudoyorov Lochinbek Bahromovich</i> O‘ZBEKISTON SERVIS SOHASIDA XIZMATLAR SIFATI KO‘RSATKICHLARINING DINAMIK TAHLILI	101-107
<i>Toxirov Akbarxon Toirxon o‘g‘li</i> INNOVATSION MARKETING INDEKSI ASOSIDA KORXONALARNING IQTISODIY XAVFSIZLIGI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI	108-113
<i>Ismoilov Bekzod Muxidinovich</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA TURIZM SOHASINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	114-118
<i>Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich</i> O‘ZBEKISTONDA EKOLOGIK MUAMMOLARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY OQIBATLARI KELIB CHIQISHI	119-135
<i>Nishonova Shaxnozaxon</i> ZAMONAVIY IQTISODIY TIZIM SHAROITIDA LOYIHALARNI BOSHQARISH YONDASHUVLARI	136-140
<i>Fayziyeva Aziza Azamat qizi</i> SURXONDARYO VILOYATIDA KICHIK TADBIRKORLIK FAOLIYATINING BANDLIK KO‘RSATKICHLARIGA TA‘SIRI: ARIMA MODEL ASOSIDA PROGNOZ VA TAHLIL	141-154

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Ismoilov Maxamadixon Isroilovich</i> IQTISODIY RATSIONALIZM: TUSHUNCHA, EVOLYUTSIYA VA NAZARIY CHEGARALAR.....	155-165
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> O‘ZBEKISTONDA KASABA UYUSHMALARINING IJTIMOIIY ADOLATNI TA‘MINLASHDAGI AHAMIYATI	166-175
<i>Obidov Asliddin Shavkatovich</i> SAID AD-DIN AL-FARG‘ONIY TA‘LIMOTIDA ONTOLOGIK VA GNOSEOLOGIK ASOSLAR	176-181
<i>Abduraxmov Xasan Ibroximovich</i> KOGNITIV-AXBOROT MUHITINING SUN‘IY INTELLEKT SHAROITIDA YOSHLAR IJODKORLIGI VA TASHABBUSKORLIGIGA TA‘SIRI.....	182-188
<i>Xolova Umida Umedovna</i> “O‘RTA ASRLAR FALSAFIY TAFAKKURIDA MA‘RIFAT KONSEPSIYASINING TARIXIY-FALSAFIY EVOLYUTSIYASI: TEOLOGIK VA MA‘RIFIY BOSQICHLAR TAHLILI”	189-192
<i>Rajabova Rohila Zakirovna</i> AHMAD DONISH'S PHILOSOPHICAL VIEWS IN HIS WORK "NAVODIR UL-VAKOE"	193-197
<i>Kabulov Jahongir Bakhodirovich</i> SEPARATIZMNING ASIMMETRIK XUSUSIYATI.....	198-202
<i>Eshkuvvatov Jaloliddin</i> MADANIYATLARARO MULOQOTDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR SINTEZI..	203-210

Jomuradov Ikrom Ilxom o'g'li
IMMANUIL KANT VA ZAMONAVIY FALSAFADA NOUMENAL ERKINLIK MUAMMOSI:
FENOMENAL DETERMINIZM BILAN BOG'LIQ ANTINOMIK ZIDDIYATNING DOLZARB
TALQINLARI..... 211-215

Rustamova Madina
OMMAVIY MANIPULYATSIYANING DESTRUKTIV XUSUSIYATI:
TAHDIDLAR VA OQIBATLAR..... 216-220

Yodgorov Alisher Nurmuhammadovich
AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA IJTIMOYIY MUNOSABATLARNING
TRANSFORMATSIYASI..... 221-225

10.00.00 - FILOLOGIYA FANLARI

Isanova Feruza Tulqinovna
O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA XALQARO HUQUQ TERMINOLOGIYASINING
GIBRID TABIATI: SHAKLLANISH MANBALARI, STRUKTUR-SEMANTIK
XUSUSIYATLARI VA FUNKSIONAL TAHLILI 226-232

Rahmatov Laziz, Baxronova Dilrabo
ABYA YALA (LOTIN AMERIKASI) DAVLATLARI NOMLARINING
LINGVOPOLITIK DISKURSI: ETIMOLOGIK VA GEOSIYOSIY TAHLIL 233-241

Quvvatova Shaxlo Choriyevna
XOLID HUSAYNIYNING "MING QUYOSH SHU'LASI" ASARI TAHLILI..... 242-246

Elmuratova Zamira Xodjamuratovna
NAQLLAR VA MAQOLLARNING FOLKLOR JANRIDAGI ROLI..... 247-251

12.00.00 - YURIDIK FANLAR

Shayzakov Shodiyor Ibragimovich
QONUNYIY KUCHGA KIRMAGAN SUD HUJJATLARI USTIDAN APELLYATSIYA
TARTIBIDA SHIKOYAT QILISHNING PROTSESSUAL-HUQUQIY ASOSLARI..... 252-261

Umarova Xolisxon Nomoz qizi
O'ZBEKISTONDA RAQOBATGA QARSHI KELISHUVLAR HAQIDA XABAR BERGANLIK
UCHUN JAVOGBARLIKDAN OZOD QILISH VA JARIMALARNI KAMAYTIRISH TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI..... 262-269

Аминова Наргиза
ОТ СЕКУЛЯРИЗМА К ПОСТСЕКУЛЯРНОСТИ:
МОДЕЛИ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ РЕЛИГИОЗНОГО И СВЕТСКОГО
В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ 270-277

Amirov Agzamxon Aktamovich
QURILISHDA ULUSHLI ISHTIROK ETISH TUSHUNCHASINING TAHLILI..... 278-283

Mamatmurodov Farrux Farxod o'g'li
SUKUKNING NAZARIY POYDEVORI HAMDA TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI:
ZAMONAVIY KAPITAL BOZORIDAGI O'RNI..... 284-294

Kabilov Sardor Asrolovich
JINOIY JAVOGBARLIKDAN OZOD QILISH TURLARI VA UNING HUQUQIY ASOSLARI 295-300

<i>Nosirov Bekzod O'ktam o'g'li</i> ETIL SPIRTI, ALKOGOL VA TAMAKI MAHSULOTLARINI VOJXONA CHEGARASIDAN NOQONUNIY OLIB O'TISH	301-304
<i>Sabirova Kuvanchay Babamuratovna</i> ГЕНДЕРНОЕ НАСИЛИЕ, УСИЛЕННОЕ ИСКУССТВЕННЫМ ИНТЕЛЛЕКТОМ: ВЫЗОВЫ МЕЖДУНАРОДНОМУ ГУМАНИТАРНОМУ ПРАВУ И ПРОБЕЛЫ В ПРАВОВОМ РЕГУЛИРОВАНИИ	305-310
<i>Urinboyeva Muxlisa Ma'rufovna</i> MEDIATSIYA INSTITUTIDA SUN'IY INTELEKT IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH MASALALARI	311-318
<i>Majidov Islomjon Dilshod o'g'li</i> YAQIN QARINDOSHLAR BILAN BOG'LIQ HOLATLARDA TRANSPORT VOSITALARI HARAKATI YOKI ULARDAN FOYDALANISH XAVFSIZLIGI QOIDALARINI BUZISH JINOYATLARINI KVALIFIKATSIYA QILISHDA INSONPARVARLIK PRINSIPINI QO'LLASH MASALALARI	319-325
<i>Habibullayev Muhammadrajab Obidjon o'g'li</i> HUQUQ VA IMKONIYATLAR MUVOZANATI: O'ZBEKISTONDA GENDER ADOLAT SARI YO'L.....	326-331
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Qurbonova Dilafroz Toshturdiyevna</i> TEMURIY MALIKALAR MA'NAVIY MEROSINING TARIXIY, ILMIY-ADABIY MANBALARDAGI TALQININI TALABA-QIZLARGA O'RGATISH	332-337
<i>Tursunaliyev Shaxzod Sherali o'g'li</i> SUMMATIVE ASSESSMENT AS A CONTEXT FOR DEVELOPING STUDENTS' CRITICAL THINKING COMPETENCE: THE PROBLEM DIMENSION	338-344
<i>Abdullayeva Surayyo Ashrafxonovna</i> AUTISTIK SPEKTR BUZILISHLARIGA EGA BOLALAR TA'LIMI VA TARBIYASINING TARIXIY SHAKLLANISHI HAMDA IJTIMOYIY ASOSLARI	345-354
<i>G'affarova Dilfuza Shavkat qizi</i> TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI.....	355-360
<i>Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich</i> THE IMPACT OF VOLITIONAL QUALITIES OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS ON THE DEVELOPMENT OF BEHAVIORAL RESPONSES ENSURING EFFECTIVE SPORTS PERFORMANCE.....	361-367

Received: 16 March 2026

Accepted: 01 April 2026

Published: 15 April 2026

Article / Original Paper

SPIRITUAL RENEWAL IN THE FIELD OF SECONDARY SPECIALIZED EDUCATION IN THE YEARS OF INDEPENDENCE

Boymurodov Shukhrat Tashkentovich

Associate Professor,

Karshi International University

E-mail: Boymurodov75@gmail.com

Abstract. The study of the current state of the country's education system and the process of personnel training is linked to the ongoing democratic transformations in the republic. Along with the full provision of educational institutions with educational, methodological, and scientific literature and didactic materials, the level of material and technical potential of educational institutions and information support, the development of the material and technical infrastructure of vocational colleges, the role and current challenges of secondary vocational education in the country, the education system, particularly vocational education, and its importance in societal development, special attention is paid to the issue of spirituality and spiritual and moral education in secondary vocational and vocational education. Each lesson analyzes work in the spiritual and educational sphere aimed at instilling in students a spirit of love and devotion to the Motherland, respect for cultural heritage, and ancient history.

Keywords: perspective of the nation, mature youth, secondary specialized vocational education, spirituality, spiritual and moral education, love and devotion to the Motherland, cultural values, heritage of the past, values, traditions.

MUSTAQILLIK YILLARIDA O'RTA MAXSUS TA'LIM, SOHASIDA MA'NAVIY YANGILANISH

Boymurodov Shuxrat Toshkentovich

Qarshi Xalqaro universiteti dotsenti

<http://www.orcid.org/0009-0009-2796-8285>

E-mail: Boymurodov75@gmail.com

Annotatsiya. Mamlakat ta'lim tizimidagi mavjud holatni o'rganish, kadrlar tayyorlash jarayoni respublikada amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Ta'lim muassasalarining o'quv-uslubiy va ilmiy adabiyot hamda didaktik materiallar bilan to'liq ta'minoti, ta'lim muassasalarining moddiy-texnika salohiyati va axborot bilan ta'minlanganlik darajasi, kasb-hunar kollejlarning moddiy-texnika bazasini rivojlanishi bilan bir qatorda, mamlakatda O'rta maxsus ta'limning o'rni va zamonaviy vazifalari, Ta'lim tizimi, xususan professional ta'lim, uning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati, o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim tizimida ham ma'naviyat, ma'naviy-axloqiy tarbiya masalasiga alohida ahamiyat berilib kelmoqda. har bir o'quv mashg'ulotlarida talabalar ongida Vatanga muhabbat va sadoqat, madaniy boylıklar va ko'hna tarixga hurmat ruhini shakllantirish ma'naviy – ma'rifiy sohadagi ishlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: millat istiqboli, voyaga etayotgan yoshlar, o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim, ma'naviyat, ma'naviy-axloqiy tarbiya, Vatanga muhabbat va sadoqat, madaniy boylıklar, o'tmish meros, qadriyat, urf-odat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N05>

Kirish. Mustaqillik sharoitda uzluksiz ta'lim tizimida o'rta maxsus ta'lim, sohasi sezilarli darajada o'zgardi, tizimda yangi bilimlarni o'zlashtirgan, aniq kasblar sohasidagi innovatsion

imkoniyatlar doirasini tushunadigan kadrlar talab qilina boshladi. Mustaqillik yillarida jamiyat hayotida ma'naviy yangilanish jarayonini amalga oshirish borasida katta ahamiyatga molik ishlar amalga oshirildi. Ta'kidlash lozimki jamiyat va ijtimoiy hayotda ma'naviyatning o'rni katta ahamiyat kasb etadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "ma'naviyat insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuchdir"[6]. Ta'lim muassasalarini rivojlantirish va ular tomonidan sifatli ta'lim xizmatlari ko'rsatish zarur bo'lib qoldi.

Zero ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirgan ishlarimiz haqida gapirar ekanmiz, o'rta maxsus ta'limi chuqur bilim va puxta kasb-hunar tayyorgarligiga ega bo'lgan yosh avlodni tarbiyalash jarayonini o'z ichiga olgan yaxlit uzluksiz ta'lim tizimini shakllantirish ishlari izchil davom ettirilganini ko'rish mumkin.

Adabiyotlar tahlili. O'zbekiston Respublikasi prezidentining asarlari, ma'ruzalari, qaror va farmoyishlari[1,2,3], Karimov I asarlari[6], Mahmudov Yu., Ikromov A., To'raev A[7]. Matqurbonov Q. Kadrlar tayyorlash milliy modeli dunyo tajribasi va milliy xususiyatlari[8] kabilar o'rganilgan

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada O'zbekistonda o'rta maxsus ta'lim sohasidagi islohotlari va uning ahamiyati qabul qilingan tarixiy va sotsiologik metodlar – tizimli tahlil, qiyosiy-tarixiy, tuzilmaviy, funksional yondashuv, qiyosiy-mantiqiylik, tahliliy, ketma-ketlik, xolislik, obyektivlik tamoyillari asosida yoritilgan.

Tahlil va natijalar. Mustaqillik yillarida barcha turdagi ta'lim muassasalarida yoshlarga ta'lim berish jarayonida o'quv-tarbiyaviy ishlar bilan bir qatorda ma'naviy-ma'rifiy tarbiya masalasiga ham katta e'tibor qaratildi. Ushbu masala ta'lim jarayonining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi. ".....Bugungi kunda butun dunyoda aholining, birinchi navbatda, yoshlarning ongi va qalbini egallash uchun keskin kurash borayotganini, diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, "ommaviy madaniyat" kabi tahdidlar kuchayayotganini hisobga oladigan bo'lsak, farzandlarimiz tarbiyasi, ma'naviy – ma'rifiy sohadagi ishlarimizni bir zum ham susaytirmasdan, aksincha ularni yangi bosqichga ko'tarishimiz zarur"[5], degan haqli e'tirof Respublika Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan alohida ta'kidlangan edi. Zero vatan taraqqiyoti, millat istiqboli shu zaminda voyaga etayotgan yoshlar kamoli bilan chambarchas bog'liq. Xususan, o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim tizimida ham ma'naviyat, ma'naviy-axloqiy tarbiya masalasiga alohida ahamiyat berilib, har bir o'quv mashg'ulotlarida talabalar ongida Vatanga muhabbat va sadoqat, madaniy boyliklar va ko'hna tarixga hurmat ruhini shakllantirishga asosiy vazifa sifatida qaraldi.

O'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari o'rtasida o'zbek xalqining boy tarixi, o'tmish meros, qadriyat va urf-odat o'rganishga qaratilgan turli xil ko'rik-tanlovlar o'tkazishga alohida e'tibor qaratildi. Mazkur yo'nalishda olib borilayotgan ishlarda asosiy e'tibor o'tkazilayotgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning ta'sirchanligini oshirishga, har bir o'quvchi qalbiga yo'l topishga qaratildi.

1998-2005-yillar davomida o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishga doir 45 ta me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etildi[1].

O'rta maxsus ta'lim muassasalarida har yili "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati, Adliya vazirligi, Oliy sud, Xalq ta'limi vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Milliy teleradiokompaniya bilan

o'zaro hamkorlikda "Siz qonunni bilasizmi?" ko'rik-tanlovi o'tkazib kelindi. Xalq ta'limi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Tarix instituti bilan hamkorlikda "Siz tarixni bilasizmi?" ko'rik tanlovi o'tkazildi. Bundan tashqari, "O'zbekiston qo'shiq bayrami", "Shunqorlar", "Quvnoqlar va zukkolar", "Yoshlar giyohvandlikka qarshi", "Biz OITS va giyohvandlikka qarshimiz" ko'rik-tanlovlari ham yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda muhim omil bo'ldi[1]. O'quv yurtlarida «Alpomish» dostonining 1000 yilligi, Imom Al-Buxoriy, Ahmad Farg'oniy, Burhoniddin Marg'inoniy, Zahiriddin Muhammad Boburning yubileylari, Abu Mansur Al-Motrudiyning 1130 yilligi, Alisher Navoiyning 560 yilligi va boshqa shu kabi ulug' allomalarning tavallud sanalari keng nishonlandi. Ta'lim muassasalarida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005- yil 18- fevralda "O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy ruhda tarbiyalashda xalqimizning boy milliy, madaniy-tarixiy an'alariga, urf-odatlarini hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan maqsadli dasturi" qabul qilindi. Ushbu dastur bajarilishi doirasida o'rta maxsus ta'lim muassasalarida "Navro'z" umumxalq bayrami, "9-may Xotira va qadrlash kuni", O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligi kuni va "1 oktyabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni", Konstitutsiya qabul qilingan kun va boshqa bayramlar munosabati bilan joylarda bayram tadbirlari, ko'rik tanlovlari keng miqyosda tashkil etildi.

"Navro'z" umumxalq bayramiga bag'ishlab "Mehr va muruvvat" jamoat fondi bilan hamkorlikda kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda tahsil olayotgan iqtidorli o'quvchilar o'rtasida "Navro'z va qadriyatlar" mavzusida ko'rik-tanlov o'tkazish an'anaga aylandi. Ko'rik-tanlov to'rt bosqichda o'tkazilib, birinchi bosqich ta'lim muassasalarida, ikkinchi bosqich tumanlarda o'tkazildi. Uchinchi bosqich viloyatlarda va oxirgi to'rtinchi bosqich respublika bosqichi Toshkent shahrida o'tkazildi. Masalan, 2013-yili 27-28-aprelda ko'rik-tanlovning respublika bosqichi Toshkent pedagogika kollejida, 2014-yilda 1-Toshkent pedagogika kollejida bo'lib o'tdi.

Talaba yoshlar ongida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda turli shiorlar ostida o'tkazilgan yoshlar festivallari va bayramlarining o'ziga xos o'rnini bor. Bunda ayniqsa, 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni, 9-may – Xotira va qadrlash kuni tadbirlari muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Kasb-hunar kolleji va akademik litsey o'quvchilari o'rtasida har yili bu bayramlar nihoyatda ko'tarinki ruhda nishonlandi. 2005-yilning iyun oyida Toshkent shahridagi "Start" (NBU) o'yingohida oliy o'quv yurtlari talabalari va o'rta maxsus ta'lim tizimi o'quvchilari ishtirokida "O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi" shiori ostidagi yoshlar festivali o'tkazildi. Shu yilning 7-iyul kuni Andijon shahrida mazkur viloyat oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi talaba va o'quvchi-yoshlari ishtirokida o'tkazilgan "Ko'zlar qarog'ida asrang Vatanni" deb nomlangan yoshlar festivali bo'lib o'tdi, unda 15 mingdan ortiq yoshlar qatnashdi.

Birgina 2008-yili o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarida 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan "Vatanni himoya qilish muqaddas burch", "O'zbek yigiti – mustaqillik posboni" mavzularida harbiy soha mutaxassislari ishtirokida 1800 dan ko'p davra suhbatlari, uchrashuvlar o'tkazilganligi[2] aniqlandi. Bu esa o'quvchilar ongida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda bu kabi tadbirlar muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarida 1-oktyabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni har yili bayram qilindi. Bayram munosabati bilan barcha ta'lim muassasalarida bayram tadbirlari, uchrashuv va davra suhbatlari, mehnat faxriylari bilan ijodiy uchrashuvlar, turli xil

ko'rik-tanlovlar o'tkazish an'anaga aylanib bordi. Masalan, 2008-yil 1-oktyabrda "Turkiston" saroyida o'tkazilgan bayram tadbiriga respublika o'rta ta'lim muassasalaridan 60 nafar eng ilg'or va tajribali pedagoglar qatnashdi. "O'qituvchi va murabbiylar kuni" bayrami munosabati bilan Davlat mukofotlari bilan taqdirlangan o'qituvchi va murabbiylar haqida maxsus lavhalar tayyorlandi.

O'rta maxsus ta'lim muassasalarida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun ham doimiy ravishda nishonlanib kelindi. Respublikada "Konstitutsiya – baxtimiz poydevori" mavzusidagi ko'rik-tanlov o'tkazilib, tanlovning Respublika bosqichi 2008-yilning 5-dekabr kuni Toshkent shahridagi 2-Yuridik kollejida o'tkazildi. Mazkur ko'rik-tanlovda Toshkent yuridik kolleji 1-o'rinni, Navoiy viloyati Karmana qishloq xo'jalik kasb-hunar kolleji hamda Andijon viloyati Bo'z pedagogika kolleji 2-o'rinni va Chirchiq axborot texnologiyalari kasb-hunar kolleji, Samarqand temir yo'l kasb-hunar kolleji hamda Farg'ona 2-tibbiyot kollejlari jamoalari 3-o'rinni egalladilar[2]. 2013-yili "9-may – Xotira va qadrlash kuni"ga bag'ishlab respublika kasb-hunar kollejlari va akademik litsey o'quvchilari o'rtasida "Urush bo'lmasin jahonda" insholar tanlovi to'rt bosqichda o'tkazildi. Tanlovning respublika bosqichi 2013-yil 6-7-iyun kunlari Buxoro neft va gaz sanoati kasb-hunar kollejida bo'lib o'tdi. Tanlov ishtirokchilariga Buxoro shahrining tarixiy va diqqatga sazovor joylari bo'ylab sayohatlar tashkil etildi.

Ta'lim muassasalarida har yili o'quv yili boshida "Mustaqillik darslari" dasturi tuzilib, o'quv jarayoniga tatbiq etildi. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 25 yilligi munosabati bilan "Go'zal va betakrorimsan, muqaddas Vatanim, jonim senga fido, O'zbekistonim!" degan ezgu g'oyadan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Abdug'anievich Karimovning porloq xotirasiga bag'ishlangan "Xotira darslari"da o'tgan 25 yil davomida O'zbekistonda iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy sohada erishilgan yutuqlar qayd etildi, "O'zbekiston kelajagi buyuk davlat" g'oyasini aks ettiruvchi mazmundagi mashg'ulotlar o'tkazildi. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida 2016-yil 4-sentyabr kuni "Bilimlar kuni", "Xotira darslari" va "Mustaqillik darslari" jami 1592 ta ta'lim muassasalarida, jumladan, 144 ta akademik litseylar, 1411 ta kasb-hunar kollejlari va 37 ta kollej filiallarida tashkil etildi. Mazkur darslarga ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan 1,3 mln dan ortiq o'quvchi-yoshlar jalb etildi. Shuningdek, o'rta ta'lim tizimida ham "Kecha kim edik-u, bugun kim bo'ldik, ertaga qanday marralarni egallashimiz kerak?" mavzusidagi insholar tanlovi bo'lib o'tdi. Insholar tanlovi o'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganiga 27 yil to'lishi munosabati bilan o'tkazildi[3]. tahlillar shuni ko'rsatadiki jamiyat taraqqiyotida ma'naviyatning o'rni yuqoriligi hisobga olinib, o'rta ta'lim tizimida ham ushbu masalaga kuchli ahamiyat berilgan. Talabalar ongida ona vatanga muhabbat va sadoqat, madaniy boyliklar va ko'hna tarixga hurmat ruhini shakllantirish asosiy vazifaga aylantirildi. Qolaversa, o'quvchilar o'rtasida boy tariximizni, o'tmish merosimizni, qadriyat va urf-odatlarimizni o'rganishga qaratilgan turli xil ko'rik-tanlovlar o'tkazish an'anaga aylantirildi.

Xullas, 1. O'zbekistonda o'rta maxsus ta'lim muassasalarida madaniy-ma'rifiy tadbirlar belgilangan reja asosida doimiy olib borilgan o'quvchi yoshlar o'rtasida boy tariximizni, o'tmish merosimizni, qadriyat va urf-odatlarimizni o'rganishga qaratilgan turli xil ko'rik-tanlovlar, turli bayram tadbirlarini o'tkazish bo'yicha doimiy chora-tadbirlarni o'tkazilib kelingan. Bu esa o'z ijobiy natijalarini berdi.

2. Ta'lim tizimi, xususan o'rta maxsus ta'lim, inson faoliyatining shunday sohasiki, uning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati doimiy ravishda ortib bormoqda. Ta'lim – o'z mohiyatiga ko'ra kelajakka xizmat qiladi. U mavjud jamiyatning emas, balki bo'lajak jamiyatning poydevorini yaratadi. Shu sababli aynan rivojlangan ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyotini belgilaydi.

3. Zamonaviy jamiyatda o'rta maxsus ta'lim ikki tomonlama vazifani bajarishi lozim: bir tomondan – shaxsning intellektual va professional ehtiyojlarini qondirish, ikkinchi tomondan – jamiyatning intellektual va kasbiy salohiyatini shakllantirish va oshirish. Demak, ta'lim tizimining dastlabki bosqichi ta'limni modernizatsiya qilish jarayoni sifatida davlat tomonidan belgilangan bo'lib, u iqtisodiyot va jamiyatdagi o'zgarishlar bilan bog'liqdir.

4. Bugungi sharoitda o'rta maxsus (professional) ta'limning roli sezilarli darajada ortmoqda: bu shaxsning ijtimoiylashuvi omili sifatida namoyon bo'ladi, oliy o'quv yurtlari uchun kadrlar bazasini shakllantiradi, jamiyat uchun muhim bo'lgan kasbiy guruhlarini etkazib beradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – T.:Ma'naviyat, 2008.-B.19.
2. Mahmudov Yu., Ikromov A., To'raev A. Ta'lim islohati ma'naviy ehtiyoj va ijtimoiy zarurat. // Xalq ta'limi. – 2000, 5-son.
3. Matqurbonov Q. Kadrlar tayyorlash milliy modeli dunyo tajribasi va milliy xususiyatlarimizni o'zida mujassam etgan o'ziga xos noyob hodisa. // «Ma'rifat» gazetasi, 2013- yil 6- fevral.
4. Mirziyoev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. // T. O'zbekiston, 2017. 17 b
5. "Ta'lim tag'risida"gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi" 1997 yil avgust.
6. O'zR O'MKHTM joriy arxivi. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi tizimida 2016 yil yakunlari bo'yicha amalga oshirilgan ishlar natijalari to'g'risida ma'lumotnoma, 1-16- varaqlar.
7. O'zR O'MKHTM joriy arxivi. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida Kadrlar tayyorlash milliy dasturini bajarilishi bo'yicha 1998-2005- yillarda amalga oshirilgan ishlar to'g'risida ma'lumot, 14-17- varaqlar.
8. O'zR O'MKHTM joriy arxivi. Markazning 2008- yilda amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi hisoboti, 1-39- varaqlar.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 4 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).